Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ismatovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Незматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaikulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investisiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellash asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sifatini oshirishda raqamli xizmatlarning obyektiv zarurati	1537
Norov Murodjon Mahmudovich	
Oliy ta'lim xizmatlari mohiyati va rivojlanish nazariyasi.....	1541
Iskandarov Shahboz Shavkat o'g'li	
Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari	1545
O'ktamova Nargiza Narzulla qizi	
Theoretical foundations of time series analysis in green economy	1552
Muradov Rustamjon Sobitkhonovich	
Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....	1563
Xalilov Bekzod Axmatovich	
Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....	1568
Iskandarova Dilafruz Ikrom qizi	
Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'rni.....	1573
Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi	
Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....	1577
Qurbanboev Jurabek Eruvboevich	
Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish istiqbollari.....	1585
Yuldasheva Saida Nematovna	
Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	1593
Azadova Gulnoza Sardorbekovna	
O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari	1600
Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li	
Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст и микроуровневые последствия	1606
Захарова Ирина Борисовна	
Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане	1611
Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич	
Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....	1621
Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli	
Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане	1625
Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина	
Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом инвестиционных рисков.....	1639
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....	1645
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	



Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari.....	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	
"Yashil" iqtisodiyotga o'tishda xalqaro hamkorlik: O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo'jaev Xadyatillo Billoxon o'g'li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O'zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag'allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari.....	1690
O'rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Byudjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po'latov Tirkash Sotiboldiyevich	
"Ichki iste'mol uchun qayta ishlash" bo'xona protseduralarini O'zbekiston sharoitida qo'llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To'qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O'zbekiston respublikasida qishloq xo'jaligi tarmog'ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo'llari va strategiyalar	1714
Mo'minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo'nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o'g'li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo'lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko'chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O'zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo'nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A'zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	



TIBBIY XIZMATLARNING RIVOJLANISH EVOLUTSIYASI VA SAMARADORLIK HAMDA XARAJATLARI TUSHUNCHALARINING MOHIYATI



Axmedov Zafarjon A'zamovich

SamDTU mustaqil tadqiqotchisi



Karabayev Sanjar Abdusamatovich

SamDTU "Informatika, informatsion texnologiyalar" kafedrası mudiri, dotsent

Uraqov Shokir Ulashovich

SamDTU "Fizika, biofizika va tibbiy fizika" kafedrası mudiri, dotsent
ORCID: 0000-0002-6267-9675;
e-mail: shokiruraqov74@mail.ru

Annotatsiya: Tibbiy xizmatlar paydo bo'lganidan boshlab bugungi kungacha bir qancha rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Bu jarayon butun dunyoda hamda ayrim mamlakatlarda turlicha kechgan. Ushbu maqolada tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi, samaradorlik tushunchasi va xarajatlar mohiyatining tahlili yoritilgan.

Kalit so'zlar: tibbiy xizmat, evolutsiya, sog'lomlashtirish, tadbirkorlik, davolash, bemor, shifokor, tarix, samaradorlik.

Abstract: From its inception to the present day, medical services have gone through several stages of development. This has been different all over the world and in individual countries. The article presents an analysis of the evolution of the development of medical services and the essence of the concepts of efficiency and cost.

Key words: medical service, evolution, health care, entrepreneurial treatment, patient, doctor, history, efficiency.

Аннотация: Медицинские услуги прошли несколько этапов развития с момента своего зарождения и до настоящего времени. Это происходило по-разному в разных частях света и в отдельных странах. В статье представлен анализ эволюции развития медицинских услуг и сущности понятий эффективности и себестоимости.

Ключевые слова: медицинская услуга, эволюция, здравоохранение, предпринимательское лечение, пациент, врач, история, эффективность.

KIRISH

Rivojlangan davlatlarning YAIM tarkibida xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 60–80 %ni, ilm-fan va innovatsion faoliyatni investitsiyalashga sarflanayotgan mablag'lar esa YAIMga nisbatan 3,0 %ni tashkil etadi.



Ushbu jami mablag'larning 2/3 qismi tadbirkorlik sohasi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotining tibbiy xizmatlar sohasi rivojlanishi va uning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mamlakatimizda kunduzgi bemor mijozlarining 39 foizi tibbiy klinikalarga, 61 foizi esa reabilitatsiya va sog'lomlashtirish markazlariga tashrif buyurganini ko'rsatadi. Statistik tahlillar 2023-yilda 5000 dan ortiq bemorning arzonroq tibbiy xizmatlarni olish maqsadida chet elga ketganini tasdiqlaydi. Ularda eng mashhur tibbiy xizmat turi kosmetik operatsiyalar bo'lgan. Shuningdek, bemorlar xorijiy tibbiy xizmatlarga jami 1 million AQSh dollaridan ortiq mablag' sarflagan. Chet elda davolangan bemorlar orasida eng mashhur yo'nalishlar Hindiston, Turkiya va Rossiya davlatlariga to'g'ri keladi.

MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasi tarkibida tibbiy xizmatlarning o'rne va ularning samaradorligini oshirish muammolari iqtisodiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan. Xususan, Yu. F. Volkov, M. Q. Pardayev, R. Atabayev, A. E. Saak, M. V. Yakimenko, E. S. Fayziyev, V. G. Fedsov, V. S. Bogolyubov, V. P. Orlovskaya, L. P. Shmatko rahbarligidagi bir guruh olimlar bemorxonalar va davolash maskanlari iqtisodiyotiga bag'ishlab darsliklar, o'quv qo'llanmalar va boshqa ilmiy-uslubiy adabiyotlarni nashr ettirgan. Biroq, ushbu asarlarda O'zbekistonda tibbiy xizmatlarning rivojlanish tendensiyalari, tarkibiy tuzilmasi va samaradorligi keng tahlil qilinmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tibbiy xizmatlarning rivojlanishi, samaradorligi va xarajatlari bo'yicha ma'lumotlar statistik byurolar, sog'liqni saqlash vazirligi hisobotlari hamda xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotlari ma'lumotlari asosida yig'ildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, trend tahlili va iqtisodiy samaradorlik indikatorlari orqali baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanayotganlar tibbiy xizmatlar atamasi bilan deyarli har bir bosqichda yuzlashmoqda. Bu tushuncha boshqa iqtisodiy-ijtimoiy atamalar kabi o'ziga xos tarixga ega. Tibbiy xizmatlar bugungi ko'rinishida mavjud bo'lmagan davrlarda ham "tabobat" tushunchasi mavjud bo'lgan. Mamlakatimiz hududida qadimda yashagan xalqlarning tibbiyot haqidagi dastlabki yozma ma'lumotlari zardushtiylar kitobi "Avesto"da uchraydi. Undagi "Vendidat" bobida yozilishicha, birinchi tabib Trita ismli shaxs bo'lgan. U "xaoma" deb atalgan mast qiluvchi va narkotik xususiyatga ega ichimlikni kashf etib, uni hayot va salomatlik manbai deb atagan. "Avesto"da odam anatomiyasi va fiziologiyasiga doir ham ma'lumotlar mavjud: inson gavdasi suyak, muskul, yog', miya, tomir, qon, jigar va jigar o'tidan iboratligi qayd etilgan.

Muqaddas islom dini mintaqamizga kirib kelgach, boshlangan davr Birinchi Renessansning poydevori bo'ldi. XI asrda faoliyat ko'rsatgan Xorazm Ma'mun akademiyasida Abu Nasr Mansur, Abulxayr ibn Hammor, Abu Sahl Iso ibn Yahyo al-Masihiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Ahmad ibn Miskavayh kabi mashhur olimlar faoliyat yuritgan. Bu allomalar antik, Yaqin va O'rta Sharq hamda Hindiston ilm-fan yutuqlarini tanqidiy va ijodiy qayta ishlab, uni yuksak bosqichga ko'targanlar.

Abu Sahl al-Masihiy – Abu Ali ibn Sinoning ustozidir. Ibn Sino esa jahon fani tarixida qomusiy olim sifatida tan olingan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozgani qayd etilgan bo'lib, shundan 242 tasi bizgacha yetib kelgan. Ularning 80 tasi falsafaga, 43 tasi tabobatga, qolganlari esa mantiq, psixologiya, astronomiya, matematika, musiqa, kimyo, axloq, adabiyot va tilshunoslikka oid. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari Yevropa universitetlarida bir necha asr davomida asosiy tibbiy darslik sifatida qo'llanilgan. U Sharqda "Shayx ur-ra'is", G'arbda esa Avisenna nomi bilan mashhur.

Ikkinchi Renessans – Temuriylar davrida ham tibbiyot rivojiga katta ahamiyat qaratilgan. Samarqandda "Dor ush-shifo" (Shifo maskani) nomli yirik shifoxona faoliyat ko'rsatgan bo'lib, unga Mir Sayid Sharif Sheroziy rahbarlik qilgan. Bu davrda Mansur ibn Muhammad, Mavlono Fayzulloh Tabriziy, Hisobiddin Ibrohim Kirmoniy kabi tabiblar ham samarali faoliyat yuritgan. Shifokorlar yuqori maosh bilan ta'minlangan, hatto hukmdor farmoni bilan ularning maoshlari olimlar, munajjimlar, tarixchilar va muhandislar bilan tenglashtirilgan.

Mustaqillik yillarida, ayniqsa, so'nggi besh yilda sog'liqni saqlash sohasida yuksalishlar kuzatildi. Jumladan, 1995-yilda aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 69,1 yosh bo'lgan bo'lsa, 2020-yilga kelib bu ko'rsatkich 73,7 yoshga yetgan. Onalar o'limi 3,1 barobarga kamayib, 100 ming tirik tug'ilgan chaqaloqqa 21 ta holatni tashkil etdi. Shuningdek, chaqaloqlar o'limi ham 3,1 barobarga kamayib, 1000 tirik tug'ilgan chaqaloqqa 11,5 ta holat to'g'ri kelmoqda.

Mamlakatimizda bolalar salomatligini mustahkamlash borasida emlash darajasi izchil yuqori ko'rsatkichda saqlanmoqda. Ayni paytda 96–98 foiz darajadagi qamrov ko'plab yuqumli kasalliklarning oldini olishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Kasalliklarning tarqalishining oldini olishga qaratilgan kompleks profilaktik choralar



– xususan, sanitariya-gigiyena standartlariga rioya qilish, epidemiyaga qarshi strategik choralarni amalga oshirish, rejalashtirilgan emlash kampaniyalarini tizimli tashkil etish – natijasida o'lat, vabo, poliomyelit, difteriya, chaqaloq qoqsholi, bezgak, qizamiq va qizilcha kabi xavfli yuqumli kasalliklar ustidan nazorat o'rnatildi.

Ushbu faoliyat samarasi sifatida O'zbekistonda bir necha xavfli kasalliklar butunlay yo'q qilinganini Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti rasman tasdiqlagan. Xususan, 2002-yilda poliomyelitning yovvoyi shtammi, 2017-yilda qizamiq va qizilcha, 2018-yilda esa bezgak kasalligi mamlakat hududida yo'q qilingan deb e'lon qilingan. Ushbu yutuqlar yuqori malakali tibbiy kadrlar tayyorlash, tizimli sog'liqni saqlash islohotlari va fuqarolarning tibbiy madaniyatini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda respublikamizda sog'liqni saqlash tizimiga malakali mutaxassislarni yetkazib beruvchi bir nechta oliy ta'lim muassasalari faoliyat yuritmoqda. Ular orasida Toshkent tibbiyot akademiyasi, Samarqand davlat tibbiyot instituti, Toshkent tibbiyot akademiyasining Urganch, Termiz va Farg'ona filiallari, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Toshkent davlat stomatologiya instituti, Toshkent farmatsevtika instituti, Qoraqalpog'iston tibbiyot instituti hamda Andijon va Buxoro davlat tibbiyot institutlari muhim o'rin tutadi. Ushbu muassasalar milliy tibbiyot tizimining ilmiy va amaliy salohiyatini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Onalik va bolalik muhofazasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, bu borada qator tizimli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 15 yoshgacha bo'lgan bolalar va homilador ayollar uchun yetti turdagi muhim vitaminlar, shuningdek, parazitlar kasalliklarining oldini olishga xizmat qiluvchi dori vositalari bepul tarqatilmoqda. 2021-yilda bu dastur bilan 11 million nafar aholi qamrab olingan bo'lsa, 2022-yilda bu ko'rsatkich 17 million nafarga yetkazildi. Mazkur tashabbusni moliyalashtirish uchun 100 milliard so'm ajratilishi belgilangan. Temir, yod, foliy kislotasi, vitaminlar va parazitlarga qarshi vositalar orqali aholida kuzatiladigan kamqonlik holatlarining 25 foizga kamaytirilishi maqsad qilingan.

So'nggi yillarda sog'liqni saqlash sohasida olib borilayotgan strategik islohotlar o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Xususan, kutilmagan pandemiya sharoitida davlatimiz sog'liqni saqlash tizimi yetarlicha bardosh ko'rsata oldi. Zudlik bilan tibbiy choralar ishlab chiqildi, koronavirusga qarshi kurashish uchun ixtisoslashgan markazlar tashkil etildi, zarur dori-darmon va himoya vositalarining strategik zaxiralari shakllantirildi. Hududlarda 60 ta kislorod stansiyasi barpo etilib, ularning yordamida tibbiyot muassasalari uzluksiz kislorod bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, mamlakatimizda vaksina ishlab chiqarish yo'nalishida dastlabki bosqichdagi amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Natijada, pandemiya oqibatlarining keng miqyosda tarqalishiga yo'l qo'yilmadi. Qabul qilingan tezkor va aniq choralar tufayli jamiyatda osoyishta turmush tarzi saqlanib qoldi, iqtisodiy faoliyatda barqarorlik davom etdi. Bu holat, o'z navbatida, mamlakatning salomatlik va xavfsizlik sohasidagi mustahkam poydevorga ega ekanini yana bir bor namoyon etdi.

Tibbiy xizmatlar paydo bo'lgan ilk davrlardan boshlab hozirgi kungacha bir necha muhim rivojlanish bosqichlarini bosib o'tdi. Bu jarayon butun dunyoda va ayrim davlatlarda turlicha kechgan. Ilmiy tadqiqotlarimiz asosida biz tibbiy xizmatlar evolyusiyasining O'zbekiston va jahonda qanday shakllangani haqida jadvallar asosida tahlil olib bordik. Butunjahon miqyosida, ayniqsa yangi tarix davrida, tibbiy xizmatlar evolyusiyasi bir asrlik oralikda 4 bosqichga bo'lingani kuzatilgan. Ushbu bosqichlar yillar oralig'ida aniqlanib, har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda tibbiy xizmatlarni rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos jihatlari¹.

Bosqich nomi va davri	Tibbiy xizmatlarning funksiyasi	Xizmat shakli turlari	Boshqaruv konsepsiyasi
1920-1950-yillar Fragmentlashuv bosqichi	-davolash -reabilitatsiya -sog'lamlashtirish	Moddiy	TMBni boshqarish, moddiy buyumlar menejmenti
1950-1970-yillar Shakllanish bosqichi	- davolash -reabilitatsiya -sog'lamlashtirish -marketing	Moddiy	moddiy buyumlar menejmenti, taqsimlash
1970-1990-yillar Rivojlanish bosqichi	- davolash -reabilitatsiya -sog'lamlashtirish -muvozanatni saqlab turish -marketing - tibbiy xizmat sifatini boshqarish	Moddiy, axborot	Tibbiy xizmat

1 Muallifning ishlanmasi




1990-2010-yillar Integratsiya bosqichi	- davolash -reabilitatsiya -sog'lamlashtirish -tibbiy servis	Moddiy, axborot, moliyaviy, xizmatlar	Tibbiy xizmat zanjirini boshqarish
2010-yildan hozirgacha Zamonaviy tibbiy xizmatning taraqqiyot bosqichi ²	-tibbiy xizmatlar assortimentining kengayishi -outsorsing - davolash -reabilitatsiya -sog'lamlashtirish -raqamli texnologiyalardan foydalanib tibbiy xizmatni boshqarish	Moddiy, axborot, moliyaviy, xizmatlar	Tibbiy xizmatni boshqarish, Jamiyatni muhofaza etish

Biz mavjud bosqichlarni o'rganib, hozirgi zamonaviy tendensiyalarni tadqiq qilgan holda, 5-bosqich – “Zamonaviy tibbiy xizmat taraqqiyoti” bosqichini kiritishni taklif qilamiz. Chunki 1990-yildan beri tibbiyot sohasida ancha o'zgarishlar yuz berdi. Aynan 2019-yildagi pandemiya tibbiy xizmat taraqqiyotiga katta hissa qo'shganini ta'kidlash mumkin.

Mazkur bosqichlar barcha mamlakatlarda ham aynan shu yillar oralig'ida kechgan, deb bo'lmaydi. Bunga boshqaruv shakli, urushlar, iqtisodiyot, geografik joylashuv kabi turli omillar ta'sir ko'rsatgan.

Aynan O'zbekistonda tibbiy xizmatlar bosqichlari qanday davrlarda kechgani va hozirgi davrda qaysi bosqichda ekani mavjud ma'lumotlar asosida tahlil qilinib, quyidagicha **1-rasm** shaklida ifodalandi (1-rasm).

1-rasm. O'zbekistonda tibbiy xizmatning rivojlanish evolyutsiyasi³.



Aynan shu yillar oralig'ida bosqichlarning davom etganligi mazkur faoliyatga oid ma'lumotlarning rasmiy manbalarda qayd etilishi asosida aniqlanadi. Bizning fikrimizcha, biz hali ham jahon tibbiy xizmat bozori doirasida o'z o'rnimizni topishga va uni mustahkam egallashga harakat qilmoqdamiz. Shu sababli, hozircha 5-bosqichga o'tganmiz, deb qat'iy ayta olmaymiz. 2030-yilgacha mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish natijasida ushbu bosqichga erishishimiz mumkin, degan fikrdamiz.

Mazkur bosqichlarda mamlakatimizda tibbiy xizmatning o'ziga xos jihatlarini quyidagicha ifodalash mumkin (2-jadval):

2-jadval. O'zbekistonda tibbiy xizmatlarning evolyusiya davrlarida xarakterli jihatlar⁴.

Bosqich	Belgisi	Boshqariladigan oqimlar
1950-1991-yillar Fragmentlashuv bosqichi	- tibbiy xizmatning mavjudligi - alohida statistikaning yuritilmasligi - tibbiy xizmatning shakllanishi;	Moddiy
1991-2010-yillar Shakllanish bosqichi	- mustaqillikdan so'ng tibbiy xizmatning infratuzilmasining shakllanishi - xususiy sektorning yuzaga kelishi - qonunchilik bazasining yaratilishi	Moddiy

2 Muallif ishlanmasi
3 Muallif ishlanmasi.
4 Muallif ishlanmasi.



2010-2020-yillar Rivojlanish bosqichi	- tibbiy xizmatning faoliyatiga oid statistikaning olib borilishi - doimiy ravishda yuk aylanmasi va tashuvlarni amalga oshirilishi - markaziy, yuqori tashkilotlarning vujudga kelishi - tibbiy xizmat markazlarning yuzaga kelishi - raqamli texnologiyalar va platformalardan foydalanish; - xalqaro tibbiy xizmatning barpo etilishi;	Moddiy, Axborot, Moliyaviy
2020-hozirgacha Integratsiya bosqichi	- xalqaro tibbiy xizmatlarda ishtirokining oshishi - xalqaro reytinglarda o'z pozitsiyasini mustahkamlash - tibbiy xizmatlarda raqobatlashish strategiyalarining mavjudligi	Moddiy, Axborot, Moliyaviy Xizmatlar
2030-yildan Zamonaviy tibbiy xizmatning taraqqiyot bosqichi	- barcha xalqaro reytinglarda o'z o'rniga ega bo'lish - mintaqaviy va umumjahon tibbiy xizmatlar faoliyatini tartiblovchi tashkilotlariga a'zo bo'lish; - raqamli texnologiyalardan foydalanishning ommalashishi; - masofaviy vositalar yordamida tibbiy xizmatni amalga oshirish;	Moddiy, Axborot, Moliyaviy Xizmatlar

Rivojlanish va integratsiya bosqichlarining bir-biri bilan uzviy tarzda sodir bo'lganligini ayrim sohalarda kuzatish mumkin. Biroq umumiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, ularni aynan shu yillar oralig'ida sodir bo'lgan deb hisoblash mumkin. Yillar davomida tibbiy xizmatning qo'llanish sohasi o'zgargani natijasida uning turli guruhlanishlari shakllangan. Bizning tavsifimizga ko'ra, tibbiy xizmatlar funksional sohasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi (3-jadval):

3-jadval. Tibbiy xizmatlarning marsadi, turi, davolash usullari, geografik joylashuvi, ijtimoiy-demografik va xizmat darajasi bo'yicha tasnifi⁵.

Tibbiy xizmatni maqsadiga ko'ra	
Tibbiy xizmat	Tibbiy xizmatlar va muolajalarni olish uchun sayohatlar.
Sog'lomlashtiruvchi tibbiy xizmat	Tibbiy xizmatdan umumiy sog'liq holatini va farovonlikni yaxshilash uchun foydalanish.
Termal tibbiy xizmat	Shifobaxsh maqsadlarda termal va mineral suvlardan foydalanish uchun tibbiy xizmat ko'rsatish.
Ma'naviy va xordiq olish uchun tibbiy xizmat	Ruhiy va psixik sog'lomlashtirish tibbiy xizmat ko'rsatish.
Taklif qilinayotgan tibbiy xizmatlar turiga ko'ra	
Diagnostic tibbiy xizmat	Diagnostic va tekshiruv xizmatlari.
Davolash tibbiy xizmat	Tibbiy muolajalar va jarrohlik amaliyotlari.
Reabilitatsion tibbiy xizmat	Operatsiyalar va kasalliklardan keyingi tiklanish dasturlari.
Profilaktik tibbiy xizmat	Kasalliklarning oldini olish va sog'liqni mustahkamlash dasturlari.
Sport-sog'lomlashtiruvchi tibbiy xizmat	Faol dam olish va fitnes dasturlari.
Davolash usullari bo'yicha tibbiy xizmat	
An'anaviy tibbiyot	Klassik tibbiy muolajalar va davolash usullari.
Muqobil tibbiyot	Akupunktura, gomeopatiya, naturopatiya, osteopatiya va boshqa usullar.
Fitoterapiya	O'simliklar va dorivor o'tlar bilan davolash.
Gidroterapiya	Suvdan (termal va mineral suvlar, loy vannalari) foydalanib davolash.
Psixoterapiya	Psixologik yordam va qo'llab-quvvatlash usullari.
Geografik joylashuviga ko'ra	
Milliy tibbiy xizmat	O'z mamlakati hududida tibbiy xizmat ko'rsatish

5 Muallif ishlanmasi



Xalqaro tibbiy xizmat	Tibbiy va sog'lomlashtiruvchi xizmatlar olish uchun chet elga tibbiy xizmat ko'rsatish
Tibbiy xizmat davomiyligiga ko'ra	
Qisqa muddatli tibbiy xizmatlar	Bir haftagacha davom etadigan tibbiy xizmatlar protsedurasi
O'rta muddatli tibbiy xizmatlar	Bir haftadan uch haftagacha davom etadigan tibbiy xizmatlar protsedurasi
Uzoq muddatli tibbiy xizmatlar	Uch haftadan ko'proq davom etadigan tibbiy xizmatlar protsedurasi
Ijtimoiy-demografik xususiyatlarga ko'ra	
Oilalarga tibbiy xizmat ko'rsatish	Bolali oilalar uchun tibbiy xizmatlar protsedurasi
Keksalarga tibbiy xizmat ko'rsatish	Keksalar uchun mo'ljallangan tibbiy xizmatlar protsedurasi
Yoshlarga tibbiy xizmatlar ko'rsatish	Yoshlar va talabalar tibbiy xizmatlar protsedurasi
Qul aylilik va xizmat darajasi bo'yicha	
Lyuks tibbiy xizmat	Yuqori darajada qulaylik va tibbiy xizmatlar, eksklyuziv xizmatlar
O'rta toifali tibbiy xizmat	O'rtacha narxdagi tibbiy xizmatlar
iljtimoiy-iqtisodiy tibbiy	Byudjet dasturlari tibbiy xizmatlar

Tibbiy xizmat taklifi yoki uning ijrosi shifokor, hamshira va shu toifadagi boshqa xodimlar tomonidan amalga oshiriladi. Shifokor – tibbiyot xodimi bo'lib, kasallikka chalingan yoki jarohatlangan inson sog'lig'ini tiklash bilan shug'ullanuvchi kasb egasi hisoblanadi. Xalq orasida “doktor”, “vrach”, “tabib” (asosan xalq tabobatiga oid) kabi nomlar keng tarqalgan. Qadimda esa ushbu kasb egalarini “hakim” deb atashgan.

Shifokorlik deb hisoblanadigan kasblarga quyidagilar misol bo'la oladi:

- Pediatr
- Jarroh
- Oftalmolog
- Tish shifokori
- Terapevt
- Ginekolog
- Urolog
- Psixiatr va boshqalar

Biz tibbiy xizmatlarni jamiyat (makroiqtisodiyot) darajasida doimiy ravishda amalga oshiriladigan jarayon sifatida, shuningdek, jamiyatimizdagi tibbiyot sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalar (mikroiqtisodiyot) darajasida iqtisodiy faoliyat turi sifatida ko'rib, ularga quyidagicha ta'rif berdik:

Makroiqtisodiy darajada tibbiy xizmatlar – bu turli xil tibbiy xizmatlarni mahalliy va xalqaro yo'nalishlarda ko'rsatish, ularning xarajatlarini oldindan belgilash, bajarilishini boshqarish va nazorat qilish jarayonidir.

Mikroiqtisodiy darajada tibbiy xizmatlar – bu ixtisoslashgan tibbiy korxonalar tomonidan mahalliy va xalqaro yo'nalishlarda iste'molchilarning xizmatdan qoniqishini ta'minlash maqsadida zarur maslahatlarni butun xizmat ko'rsatish jarayoni davomida taklif etishga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatidir.

Tibbiy xizmatlar – bu tibbiy xizmat ko'rsatish jarayonida yuzaga keladigan, davolash, reabilitatsiya va sog'lomlashtirish maqsadida shifokor tomonidan eng qulay tashxis va unga mos retsept tanlanadigan, bemor turiga ko'ra davolash usuli belgilanadigan va iste'molchiga zarur maslahatlar berib boriladigan xizmatlar majmuidir.

Tibbiy xizmat – bu shifokor va iste'molchi o'rtasidagi oldi-sotdi munosabatlari asosida aholi tibbiy ehtiyojini qondirish maqsadida amalga oshiriladigan xizmat ko'rsatish faoliyati hisoblanadi.

Mazkur ta'rifning boshqa ta'riflardan farqli jihati – u faqat yukni tashish jarayoni bilan emas, balki bemor (iste'molchi)ga shifokor tomonidan xizmatdan yuqori darajada qoniqish hosil qilishi uchun doimiy maslahatlar berib boriladigan tibbiy xizmat turlarini ham o'z ichiga olganidadir.

Samaradorlik – bu umumiy tan olingan yagona ta'rifga ega bo'lmagan iqtisodiy tushunchalardan biridir. Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, samaradorlikning mohiyati o'rganilayotgan obyekt, faoliyat yoki operatsiyaning mazmuni, ularning o'ziga xos xususiyatlari, samaradorlikni o'lchash maqsadi va metodlariga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Quyida samaradorlikka oid bir nechta ta'riflar keltiriladi:

Samaradorlik – mumkin bo'lgan minimal xarajatlar bilan muayyan natijaga erishish yoki mavjud resurslardan imkon qadar ko'proq hajmda mahsulot ishlab chiqarish.

Samaradorlik – iqtisodiy-matematik atama sifatida “samaradorlik nuqtasi”, “samaradorlik chegarasi” kabi tushunchalar doirasida o'rganiladi. Mazkur atama ma'lum bir maqsadga erishish, potensial imkoniyatni ro'yobga chiqarish, vazifani muvaffaqiyatli bajarish ma'nolarini anglatadi.



Samaradorlik – foydalilik.

Samaradorlik – moliyaviy nuqtayi nazardan bir birlik xarajat, sarflangan kapital yoki barcha ishlab chiqarish omillariga nisbatan ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ko'rsatilgan xizmat hajmini ifodalovchi ko'rsatkich.


Samaradorlik – iqtisodiy mazmuniga ko'ra ishlab chiqarishning yakuniy natijasi bilan unga ajratilgan resurslar, mablag'lar yoki qilingan xarajatlar o'rtasidagi nisbat sifatida tushuniladi.

Ushbu ta'riflardagi umumiy jihat – bu natija va unga erishish uchun qilingan harakatlar o'rtasidagi bevosita bog'liqlikdir. Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda samaradorlik tushunchasi iqtisodiy samaradorlik doirasida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, samaradorlikni iqtisodiy va texnik jihatdan izohlash, ishlab chiqarish va resurslar taqsimotidagi samaradorlik haqidagi yondashuvlar ko'pincha bir-birini to'ldiradi.

Shu asosda biz xizmat ko'rsatish sohasi uchun quyidagi ta'rifni taklif qilamiz:

Xizmat ko'rsatish sohasida samaradorlik – bu xizmat ko'rsatuvchi tomonidan minimal xarajatlar bilan xizmatni yakunlash va iste'molchi ehtiyojini qondirish darajasidir.

Ushbu ta'rifda ham ishlab chiqarish sohasidagi kabi samaradorlik – erishilgan natija va sarflangan resurslar o'rtasidagi nisbat orqali ifodalanadi. Ammo moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning farqli jihatlari shundaki, xizmat natijasi iste'molchi tomonidan qanday qabul qilinishi muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, ko'rsatilgan xizmatdan iste'molchi qoniqmagan bo'lsa, u boshqa xizmat ko'rsatuvchini tanlashi mumkin. Masalan, agar bemor tibbiy xizmatdan norozi bo'lsa, keyingi safar boshqa muassasaga murojaat qiladi. Tibbiy xizmat ko'rsatuvchi markaz tomonidan qargalganda, xizmat amalga oshirilgan, xarajatlar qoplangan bo'lishi mumkin, ammo mijoz endi bu markazga qaytmasligi ehtimoli yuqori (2-rasm).



2-rasm. Tibbiy xizmat ko'rsatuvchi korxona faoliyatidan manfaatdorlar.

Samaradorlikni aniqlash va o'lchash korxonaga aloqador shaxslar uchun muhim ahamiyatga ega. Ular quyidagi guruhlariga bo'linadi:

I guruh – bevosita korxonada faoliyat yuritayotganlar: tibbiy korxona rahbari, bo'lim boshliqlari, menejerlar va ishchilar.

II guruh – korxonada ishlamaydigan, ammo uning faoliyatidan manfaatdor shaxslar: malakali mutaxassislar, investorlar (investitsiya kiritgan yoki kiritmoqchi bo'lganlar).

III guruh – korxona tomonidan amalga oshirilgan faoliyatning yakuniy natijalaridan foyda oluvchi subyektlar: xizmat iste'molchilari, hisobot talab qiluvchi va nazorat qiluvchi davlat tashkilotlari (soliq, moliya, statistika, bojxona).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tibbiy xizmatlar tizimining evolyutsion rivojlanishi, uning samaradorligini baholash hamda xarajatlar mexanizmlarini chuqur o'rganish sog'liqni saqlash tizimining barqarorligi va aholining hayot sifati uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Mazkur tahlillar shuni ko'rsatadiki, tibbiy xizmatlarning samaradorligini oshirishda ularning iqtisodiy jihatdan asoslangan rejalashtirilishi, resurslardan oqilona foydalanilishi va bemorlarga yo'naltirilgan yondashuv muhim ahamiyatga ega. Sohaning jadal rivoji uchun davlat budjeti va xususiy investitsiyalar o'rtasida muvozanatli moliyalashtirish modeli joriy etilishi, elektron sog'liqni saqlash tizimlari kengaytirilishi, profilaktik xizmatlar ustuvorlikka aylanishi va natijadorlikka asoslangan moliyaviy mexanizmlar



ishlab chiqilishi lozim. Shuningdek, tibbiy xizmatlar sifati va ko'lamini aniqlashtirish uchun zamonaviy monitoring va audit tizimlarini kuchaytirish zarur.

Tibbiy xodimlarning malakasini oshirish, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilash va motivatsion mexanizmlarni yo'lga qo'yish ham samaradorlikni oshirishda muhim omildir. Shu bilan birga, aholining tibbiy savodxonligini oshirish orqali sog'liqni saqlash tizimiga tushayotgan yukni kamaytirish ham strategik maqsad bo'lib qolmoqda. Ushbu takliflar tizimli ravishda amalga oshirilsa, sog'liqni saqlash xizmatlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. S.A. Sagdullaev, G.S. Alimova. Sog'liqni saqlash iqtisodiyoti. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 240 b.
2. A.K. Muxamedov. Sog'liqni saqlash tizimida iqtisodiy islohotlar. – T.: Fan va Texnologiya, 2020. – 198 b.
3. E.M. Mamatqulov. Tibbiy xizmatlar menejmenti. – T.: Innovatsiya Ziyo, 2021. – 212 b.
4. A.S. Xolmatova. Tibbiy xizmatlar sifati baholash tizimi. – T.: Ilm Ziyo, 2021. – 164 b.
5. D.K. Raxmonov. Tibbiy xizmatlarning moliyalashtirilishi va samaradorligi. – T.: Yangi Asr Avlodi, 2022. – 175 b.
6. OECD. Health at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 200 p.
7. WHO. Global Spending on Health: A World in Transition. – Geneva: World Health Organization, 2019. – 102 p.
8. William C. Hsiao, Peter S. Heller. What Macroeconomists Should Know About Health Care Policy. – Washington: IMF, 2007. – 74 p.
9. Donald A. Barr. Introduction to U.S. Health Policy: The Organization, Financing, and Delivery of Health Care in America. – Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2020. – 376 p.
10. Reinhardt U.E., Hussey P.S., Anderson G.F. U.S. Health Care Spending in an International Context. – Health Affairs, 2004, Vol. 23(3). – pp. 10–25.
11. Мухаммедов М.М., Зайналов Ж.Р., Нормуродов У.Н., Айубов И.И., Халиков Я.М. va boshq. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik – Samarqand: "Fan bulog'i" nashriyoti, SamISI, 2022-y.-490 bet.
12. I.M. Osadchaya umumiy tariri ostida, Ekonomika» izohli lug'ati, 2000 -y, 86- c.
13. Экономико-математический словарь: Словарь современной экономической науки. Л.И.Лопатников., –М.: Дело. 2003
14. <https://yuz.uz/news/ozbekistonda-tibbiyot-tarixi-va-rivoji>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>